

ERKIN IQTISODIY ZONALARNING EKSPORT SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV TAMOIYILLARI

Saidaxmedova Dilafruz Saidbaxromovna – Jizpi dotsenti,

G'oyibnazarova Shaxnoza – O'QU Jizzax filiali 2 bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada erkin iqtisodiy zonalarining eksport salohiyati tushunchasi va uning dolzarbligi yoritilgan. Unda erkin iqtisodiy zonalarining eksport salohiyatini rivojlantirishning boshqaruv tamoyillari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Erkin iqtisodiy zona, eksport salohiyati, raqobatbardoshlik, boshqaruv, tamoyillar, vakolat.

ПРИНЦИПЫ УПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЕМ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН

Саидахмедова Дилафруз Саидбахромовна – доцент Джизпи,

Гайибназарова Шахноза-магистрант 2 курса Джизакского филиала ОГУ

Аннотация. В данной статье рассмотрено понятие экспортного потенциала свободных экономических зон и его актуальность. В нем разработаны принципы управления развитием экспортного потенциала свободных экономических зон.

Ключевые слова. Свободная экономическая зона, экспортный потенциал, конкурентоспособность, управление, принципы.

Management principles for the development of export potential of Free Economic Zones

Saidakhmedova Dilafruz Saidbakhromovna-associate professor of Jizpi,

Kheyibnazarova shakhnoza-master of 2 stages of the Jizzakh branch

Annotation. This article examines the concept of the export potential of free economic zones and its relevance. It developed principles for managing the development of the export potential of free economic zones.

Key words. Free economic zone, export potential, competitiveness, management, principles.

Jahon standartlariga javob beradigan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, mamlakatimizning eksport salohiyatini yanada oshirish masalasi bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Iqtisodchi olimlar T.Farole va F.Dobrogonov erkin iqtisodiy hududlarning amaliy jihatiga e'tibor qaratib, "Mazkur tuzilmalar rivojlanayotgan davlatlar uchun qo'shimcha iste'mol bozorlarini egallash imkoniyatini yaratib beradi hamda davlatlarning eksport salohiyatini yuksaltiradi. Ayni bir vaqtda ushbu iqtisodiy tuzilmalar mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarini kuchaytirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi", deb ta'kidlaydilar¹.

Erkin iqtisodiy zonalarining eksport salohiyatini oshirish bir qator ustuvor vazifalarning hal etilishiga zamin yaratadi:

- raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali korxonalarining eksport imkoniyatlarini kengaytirish;
- hududning eksport salohiyatini oshirish orqali uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish;
- hududlarda banlik masalani hal qilish orqali aholi turmush darajasi sifatini yaxshilash;
- tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish orqali hududning investitsiya muhitini yaxshilash va shu kabilar.

Ayrim tadqiqotchilar erkin iqtisodiy zonalar samarali faoliyat yuritishi uchun quyidagilarni ham muhim, deb hisoblaydilar²:

- tashlandiq yerlarning unumdorligini tiklash va ishlab chiqarish mahsuldorliga,
- hudud aholisi uchun juda ko'p miqdorda ish joylarini yaratish;
- ijtimoiy va xususiy sektorlar o'rtasida kooperatsiyani rivojlantirish.

¹ Dobrogonov F., Farole T. An economic integration zone for the East African community: exploiting regional potential and addressing commitment challenges. World bank policy research working paper 5967. Washington, DC: World Bank

² Xoliqulov A.R. Erkin iqtisodiy zonalar: nazariy asoslar va jahon tajribasi. T., 2002 y

Erkin iqtisodiy zonalarning eksport salohiyatini oshirishda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning xususiyatlarini e'tiborga olish va ularning har biriga alohida tarkibiy element sifatida qarash asosida muammoga tizimli yondashish maqsadga muvofiq.

Erkin iqtisodiy zonalarining eksport salohiyati deganda, mamlakatning imtiyozli rejimga ega bo'lgan hududini samarali boshqarish orqali raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va tashqi bozorga olib chiqish qobiliyatini tushuniladi. Erkin iqtisodiy zonalarda boshqaruv samaradorligini oshirishda direksiyasining vakolatini kengaytirish, erkin iqtisodiy zonalarini boshqaruv mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Zero, Xitoyda erkin iqtisodiy zonalarning jadal rivojlanishiga quyidagi omillar turtki bo'lmoqda:

1. Maxsus iqtisodiy zonalar direksiyasiga Markaziy hukumatning rozilgisiz infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha mustaqil qarorlarni qabul qilishga ruxsat berilganligi;

2. Maxsus iqtisodiy zonalardagi korxonalar o'zlarining investitsiya, innovatsiya, ishlab chiqarish va marketing qarorlarining katta qismini mustaqil qabul qilishi;

3. Maxsus iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalar uchun maxsus soliq imtiyozlari berilganligi va ularning mahsulotlari asosan eksportga yo'naltirilganligi;

4. Maxsus iqtisodiy zonalarda iqtisodiy faoliyat asosan bozor tamoyillari asosida boshqarilishi va ularga xalqaro savdoda katta mustaqillik berilganligi;

5. 2019-2020 yillarda Xitoyda 24 ta yangi transchegaraviy elektron tijorat zonolari (New Cross-Border E-Commerce Zones) ochilganligi;

6. Xitoydagi maxsus iqtisodiy zonalar asosan yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi³.

Xitoy tajribasidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, erkin iqtisodiy zonalar direksiyasiga hududlarda savdo, investitsiyalar, innovatsiyalar va

³ <https://daryo.uz/2023/03/07/yim-osishining-asosiy-omili-xitoydagi-maxsus-iqtisodiy-zonalar-qanday-yaratilgan>

infratuzilmani rivojlantirishda mustaqil qarorlarni qabul qilish, shuningdek, soliq va bojxona imtiyozlarini berish hamda hududlararo tizimli joylashtirish kabi masalalarda vakolatini kengayirishga e'tibor qaratish erkin iqtisodiy zonalarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda direksiya rahbarining erkin iqtisodiy zonalarini boshqaruv samaradorligini oshirish, xususan, eksport salohiyatini rivojlantirish maqsadiga erishishi uchun muayyan boshqaruv tamoyillarni ishlab chiqishi talab etiladi.

Ma'lumki, boshqaruv tamoyillari boshqaruv jarayonning mazmuni, tuzilishi va tashkil etilishiga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi. Qat'iy boshqaruv tamoyillari asosida qabul qilingan har qanday qarorlar xolisligi bilan ajralib turadi.

Shu nuqtai nazardan, erkin iqtisodiy zonalarining eksport salohiyatini rivojlantirishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Tizimlilik. Bu tamoyil erkin iqtisodiy zonaning eksport salohiyatiga ta'sir qiluvchi omillarning o'zaro bog'liqlik jihatlarini o'rganish asosida, ularning sinergetik xususiyatini inobatga olgan holda tizimli yondashish zarurligini nazarda tutadi.

2. Majmuaviylik tamoyili. Bu tamoyil eksport faoliyati jarayonlarini har tomonlama o'rganishni, eksport natijalarini belgilovchi barcha omillar ta'sirini majmuaviy hisobga olish zarurligini taqozo etadi.

3. Moslashuvchanlik tamoyili. Bu prinsipning mohiyati erkin iqtisodiy zonalarining eksport faoliyatiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi muhit omillarning o'zgarishini hisobga olgan holda, barqaror tura olishi kerakligini ifodalaydi.

4. Teskari aloqa tamoyili erkin iqtisodiy zonalarining eksport salohiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha natijalarini doimiy monitoring qilishga asoslanadi.

5. Aniqlik tamoyili erkin iqtisodiy zonalarining eksport faoliyatini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, erishilgan har bir natijalarni chuqur tahlil qilish asosida uning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha aniq choralar ko'rish zarurligini ifodalaydi.

6. O‘zaro hamkorlik tamoyili. Bu tamoyil erkin iqtisodiy zonalar uchun yangi istiqbollarni ochadigan va strategik harakatlar rejalarini kengaytiradigan manfaatdor tomonlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarurlini bildiradi.

7. Rag‘batlantirish tamoyili boshqaruvning muhim tamoyili bo‘lib, erkin iqtisodiy zona ishtirokchilari bilan bir qatorda, xorijiy va mahalliy ichchilarni qo‘llab-quvvatlash, motivlashtirish zarurligini ifodalaydi.

8. Boshqaruvning strategik yo‘naltirilganligi tamoyili. Bu tamoyil erkin iqtisodiy zonalarining strategik maqsadlarini amalga oshirishda, hudud tarkibidagi barcha korxonalarining rivojlanish strategiyalari bilan muvofiqlashtirish zarurligini bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz eksport salohiyatini yanada oshirishda erkin iqtisodiy zonalarining o‘rni beqiyos. Jahon bozori talablariga javob beruvchi eksportbob mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini rivojlantirish, xususan, erkin iqtisodiy zonalarining eksport salohiyatini yanada oshirish yo‘li bilan mamlakat eksport tarkibini sifat va son jihatdan o‘zgartirish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va xorijga sotishni rag‘batlantirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidahmedova, D. Management Analysis and Innovation Management Model. *Published in International Journal of Trend in Scientific Research and Development (ijtsrd)*, ISSN, 2456-6470.

2. Саидахмедова, Дилафруз, and Шахноза Гойибназарова. "O‘zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarining eksport salohiyatini oshirishning dolzarb vazifalari." *Новый Узбекистан: наука, образование и инновации* 1.1 (2024): 245-247.

3. Saidaxmedova, D. S. (2024). Maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etishning iqtisodiy zaruriyati. *Экономика и социум*, (3-2 (118)), 300-303.

4. Saidaxmedova D.S. “Menejmentga kirish” (praktikum). Darslik. “JizPI tipografiyasi” nashriyoti, 2023 yil. - 300 b.

5. Saidahmedova, D. (2024). O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari. *Journal of Contemporary World Studies*, 2(1), 50-54.

6. Saidaxmedova, D. S. (2024). Erkin iqtisodiy zonalar–hududlarni rivojlantirishning muhim omili sifatida. *Экономика и социум*, (2 (117)-1), 617-620.